

XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA RAQAMLI TA'LIM PLATFORMALARI VA INTERAKTIV METODLARINING DIDAKTIK IMKONIYATLARI

Muxammadyusupova Madina Muzaffarovna

1-Ingliz fakulteti, 3 kurs talabasi

muhammadyusupovamadina8@gmail.com

ORCID: 0009-0004-5496-4478

Ilmiy rahbar: **Alimxanova Nigoraxon Amilevna**

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada xorijiy tillarni o'qitishda raqamli ta'lim platformalari va interaktiv metodlarining didaktik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Ularning o'quvchilarning ishtiyoqi, til orqali muloqot qilish malakasini shakllantirish, hamda ushbu ta'lim jarayonini shaxsiylashtirishga ta'siri o'rganiladi. Shu jumladan zamonaviy texnologiyalarni o'quv jarayonlari bilan birlashtirish masalalari korib chiqiladi.

Kalit so'zlar: raqamli ta'lim platformalari, interaktiv metodlar, xorijiy tillarni o'qitish, motivatsiya, kommunikativ kompetensiya, ta'limni shaxsilashtirish, raqamli texnologiyalar.

Annotation: This article analyzes the didactic potential of digital learning platforms and interactive methods in teaching foreign languages. It examines their impact on students' motivation, the development of communicative competence through language, and the personalization of the learning process. In addition, the issues of integrating modern technologies into the educational process are considered.

Keywords: digital learning platforms, interactive methods, teaching foreign languages, motivation, communicative competence, personalized learning, digital technologies.

Аннотация: В данной статье анализируются дидактические возможности цифровых образовательных платформ и интерактивных методов в обучении иностранным языкам. Рассматривается их влияние на мотивацию учащихся, формирование коммуникативной компетенции через язык, а также персонализацию образовательного процесса. Кроме того, рассматриваются вопросы интеграции современных технологий в учебный процесс.

Ключевые слова: цифровые образовательные платформы, интерактивные методы, обучение иностранным языкам, мотивация, коммуникативная компетенция, персонализация обучения, цифровые технологии.

Ohirgi asirda zamonaviy texnologiyalar shiddat bilan rivojlanmoqda va bu albatta ta'lim shakliga ham o'z ta'sirini ko'rsatmoqda Bugungi kunda o'quvchilar mustaqil ravishda bilim olish imkoniyatiga ega, ta'lim shakli esa odatiy uslubdan elektron va interaktiv shaklga o'tmoqda. Endilikda o'quvchilar smartfon, kompyuter va planshetlardan foydalangan holda bilim olish imkoniyatlariga ega. Hozirgi kunda xorijiy tillarni o'qitish jarayoni ham sezilarli darajada takomillashdi. Dastlab til qoidalari va yodlash asosiy o'rinda bo'lgan, hozirda esa muloqotga asoslangan yondashuv yetakchi o'rinda turadi. Kommunikativ kompetensiya faqatgina til qoidalarini mukammal bilish emas, balki real hayotda erkin muloqot qila olish degani ham. Xorijiy til o'rganayotgan shaxs uchun kommunikativ kompetensiya muhim ko'nikmalardan biri hisoblanadi. Raqamli ta'lim platformalari va interaktiv uslublar ta'lim jarayonini yanada qiziqarliroq hamda foydaliroq qilishda asosiy resurs sifatida ko'rib chiqilmoqda. Vaholanki standart yondashuv o'quvchilarning qiziqishini oshirishga hardoyimham foydali bo'lmasligi mumkin. Mazkur maqolaning asosiy vazifasi: raqamli

platformalar va interaktiv metodlarning xorijiy tillarni o'qitishida didaktik salohiyatlarini ko'rib chiqish.

Metodlar. Ushbu ilmiy ishda chet tillarini o'qitish jarayonida raqamli ta'lim platformalari interaktiv metodlarning ahamiyati va ularning effektivligini tahlil qilish maqsadida bir necha metodlardan foydalaniladi. Avvalo, raqamli ta'lim interaktiv va muloqot kompetensiyasiga oid asosiy tushunchalar o'rganib chiqilib hamda, mavzuga asoslangan ilmiy adabiyotlar, internetdagi ishonchli manba va pedagogik resurslar ko'rib chiqilib, nazariy tahlil amalga oshirildi. Shuningdek odatiy ta'lim hamda zamonaviy digital ta'lim o'rtasidagi farqni aniqlash uchun taqqoslash metodi qo'llanildi. Ushbu bosqichda an'anaviy o'qitish darslari va o'quvchi ishtirokiga asoslangan kommunikativ darslar tahlil qilinib solishtirildi. O'quvchilarning dars jarayonidagi faolligi, texnologik platformalardan foydalanish darajasi va muloqotga bog'liq munosabatlari kuzatildi. Shuningdek texnologik vositalar oquvchilarning qiziqishini oshirishi va ularga yanada motivatsion manba ekanligi aniqlandi. Bundan tashqari, so'rovnoma yordamida oquvchilarning fikrlari o'rganildi. Ular raqamli platformalar qiziqarli hamda samarali deb uslub deb hisoblashdi. Shu jumlada ularning e'tiborini ko'proq video darsliklar, onlayn testlar interaktiv mashqlar ko'proq ularni jalb qilishi ayniqlandi. Tadqiqotda blended learning metodi ham foydali shakl sifatida o'rganib chiqildi. [1] Kommunikativ metodlar (role play, discussion, group work) va digital vositalar (quiz dastur, online platforma, mobil ilova)lar ham tahlil qilindi. Umumiy olganda ushbu o'rganib chiqilgan metodlar, raqamli platformalar hamda interaktiv ta'lim tizimini chuqur o'rganishga hamda xorijiy til o'rganish jarayonidagi ahamiyatini ochib bershga yordam berdi.

Natijalar: Tadqiqot davomida o'tkazilgan kuzatishlar va so'rovnomalar yordamida aniqlandiki o'quvchilarda darsga bo'lgan qiziqishi ortgani hamda o'quvchilar darsda faolroq ishtirok etishganiga raqamli ta'lim shakli hamda kommunikativ metodlarning o'rni katta ekanligi aniqlandi. Olingan natijalarga ko'ra, o'quvchilar ko'plab video darsliklar, online mashqlar va interaktiv topshiriqlar orqali o'zlashtirishlari tezroq, osonroq hamda foydaliroq deb topildi. Hamda ularda mustaqil bilim olish ko'nikmasi rivojlanganini ko'rsatdi. Bundan tashqari o'quvchilar kommunikativ kompetensiya darajalarini role play, discussion, hamda real hayotga yaqin dialoglar kabi muloqotga oyit mashqlar orqali o'z fikrlarini erkin ifoda etish ko'nikmalarini oshirganlari kuzatilda. Interaktiv metodlar dars jarayonini yanada qiziqarli jonli hamda samarali qilgani kuzatilgan. Guruh bilan ishlash o'yin asosidagi munozaralar o'quvchilarning darsga bo'lgan motivatsiyasini oshirgan hamda darsga faolligini kuchaytirgan. Umuman olganda, tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki raqamli platformalar hamda interaktiv metodlar xorijiy til o'rganishda samarali hamda sezilarli tasir ko'rsatadi va oquvchilarning bilim darajasi kommunikativ kompetensiyasini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatishini ko'rsatdi.[1]

Muhokama. Natijalarga ko'ra raqamli ta'lim platformalari va interaktiv metodlar xorijiy tillarni o'rganishni foydali hamda tezroq qilishga yordam beradi. Video darsliklar o'yin tarzidagi mashqlar orqali o'quvchilarni darsga qiziqishlari ortadi hamda mavzuni tezroq tushunishadi. Interaktiv metodlar(discussion, role play, group work) o'quvchilarni tilni real hayotda ishlatishiga undaydi hamda muloqotni o'rganayotgan tillarida oshirishga yordam beradi[4]. Raqamli resurslar va topshiriqlar juda ko'p bo'lishi o'quvchilarning charchoq va motivatsiyasi pasayishiga olib kelishi mumkin, hamda diqqatni jamlash o'quvchilar uchun qiyin bo'lishi mumkin natijada bu holat o'quvchining o'qish samaradorligini kamaytirishi mumkin. Shu sababli an'anaviy va raqamli ta'lim usullarini birga qo'llash va o'quvchilarning yoshini hisobga olish muhim[3]. Shu jumlada bir necha muamollar bo'lishi mumkin. Masalan internet muammo yoki raqamli platformalardan

foydalanishda yetarlicha malaka yo'qligi o'quv jarayoniga ta'sir o'tkazishi mumkun[2]. Shunga qaramay, raqamli va ana'naviy ta'limni bir jarayonda qo'llash eng samarali natijani beradi. Umuman olganda, ushbu usullar xorijiy til o'qitish sifatini sezilarli darajada yaxshilaydi.

Adabiyotlar ro'yhati:

1. Sololova.E.N Xorijiy tillarni o'qitish metodikasi. Toshkent
2. Bim.I. L "O'rta maktabda xorijiy tilni o'qitishning nazariyasi va amaliyoti." — Moskva: "Prosveshcheniye", 2007.
3. Zimnyaya I. A. Pedagogik psixologiya. Moskva.
4. Passov E. I. Kommunikativ o'qitish metodikasi. Moskva.